

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	



XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI

Matrasulova Feruza Baxodirovna

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tadqiqotchisi

feruzamatrasulova309@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-3189-1373/print>

(+998 70 061 5558)

Abstract: The article assesses the role of the Khorezm region in the Republic of Uzbekistan's rice production and identifies key development trends based on an analysis of the main economic indicators of rice cultivation in the region. The results indicate that the Khorezm region holds a significant position in the country's rice industry and that intensive approaches focused on increasing yields are becoming increasingly important for the development of the sector.

Keywords: rice farming, rice cultivation, rice, yield, gross harvest, farms, Khorezm region, agriculture, intensive development, food security.

Annotatsiya: Maqolada Xorazm viloyatida sholi yetishtirishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili asosida viloyatning respublika sholichiligidagi o'rni baholangan hamda asosiy rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Natijalar Xorazm viloyati respublika sholichiligida salmoqli o'rin egallashini hamda tarmoq rivojlanishida hosildorlikni oshirishga asoslangan intensiv yondashuvlarning ahamiyati kuchayib borayotganini ko'rsatdi.

Kalit iboralar: sholichilik, sholi yetishtirish, guruch, hosildorlik, yalpi hosil, fermer xo'jaliklari, Xorazm viloyati, qishloq xo'jaligi, intensiv rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi.

Аннотация: В статье на основе анализа основных экономических показателей производства риса в Хорезмской области дана оценка места региона в рисоводстве Республики Узбекистан и выявлены основные тенденции развития отрасли. Результаты исследования показали, что Хорезмская область занимает значительное место в республиканском рисоводстве, а в развитии отрасли возрастает значение интенсивных подходов, основанных на повышении урожайности.

Ключевые слова: рисоводство, производство риса, рис, урожайность, валовой сбор, фермерские хозяйства, Хорезмская область, сельское хозяйство, интенсивное развитие, продовольственная безопасность.

Abstract: The article assesses the role of the Khorezm region in the Republic of Uzbekistan's rice production and identifies key development trends based on an analysis of the main economic indicators of rice cultivation in the region. The results indicate that the Khorezm region holds a significant position in the country's rice industry and that intensive approaches focused on increasing yields are becoming increasingly important for the development of the sector.

Keywords: rice farming, rice cultivation, rice, yield, gross harvest, farms, Khorezm region, agriculture, intensive development, food security.

KIRISH

Sholichilik O'zbekiston agrar tarmog'ining strategik ahamiyatga ega muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda qishloq joylarda aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Chunki guruch va undan tayyorlanadigan mahsulotlar aholining an'anaviy ovqatlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, o'zbek milliy taomlari tarkibida guruch asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo'lib, palov, mastava, shirguruch kabi taomlarning keng iste'mol qilinishi unga bo'lgan talabning barqaror yuqori darajada saqlanib qolishiga xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan sholichilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish mamlakat agrar iqtisodiyotining dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi ta'sirida suv resurslarining cheklanib borishi sholi yetishtirish samaradorligini oshirishda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu borada ta'kidlanganidek, "bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi va qishloq



xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi suvni ko'p iste'mol qiladigan ekinlarni yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda" [1].

Shu bilan birga, olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, "respublikada aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan guruch mahsulotlarining amaldagi hajmi tibbiy iste'mol me'yorlariga nisbatan 50 foizdan kamni tashkil etmoqda" [2]. Bu holat ichki bozorda guruch mahsulotlarini yetarli hajmda ishlab chiqarish va sholichilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Qayd etish joizki, O'zbekistonda sholi asosan Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida yetishtiriladi. Mazkur hududlar orasida Xorazm viloyati sholi ekiladigan maydonlar hajmi, yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu bois mazkur hududda sholichilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish nafaqat hududiy, balki respublika miqyosida ham muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sholichilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish, xususan, sholi hosildorligini oshirish va uni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy izlanishlarda sholichilikning yuqori resurs talab qiluvchi tarmoq ekanligi, ayniqsa, suv resurslariga bo'lgan ehtiyojning kattaligi, shuningdek, tuproq-meliorativ holat, agrotexnologik tadbirlar [3] va nav xususiyatlarining hosildorlikka ta'siri atroflicha o'rganilgan. Shu bilan birga, tarmoqni samarali rivojlantirishda inson omilidan oqilona foydalanish, sholichilik klasterlarini tashkil etish va boshqarishning ahamiyati keng yoritilgan [2, 4].

Shuningdek, iqlim o'zgarishi sharoitida sholichilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish, suv taqchilligiga moslashgan ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari ham tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda inson omilining ta'siri ham keng tadqiq etilmoqda. Xususan, fermerlarni o'qitish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yer unumdorligini oshirish va sug'orish infratuzilmasini yaxshilash sholi ishlab chiqarishni ko'paytirishning muhim omillari ekanligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi kooperativlarining sholi yetishtirish samaradorligi va aholi daromadlariga ta'siri asoslangan [5].

Biroq mavjud ilmiy ishlar asosan sholi yetishtirish texnologiyalari va agrobiologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, alohida hududlar kesimida tarmoq rivojlanish tendensiyalarini baholashga qaratilgan iqtisodiy tahlillar yetarli darajada emas. Xususan, Xorazm viloyatida sholi yetishtirishning so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi va uning respublika sholichiligidagi o'rnini kompleks baholash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili va guruhlash usullaridan foydalanildi. Tahlillar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi hamda tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va matnni tayyorlash jarayonida yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda sholichilik tarmog'ini rivojlantirish, aholining guruch mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida bir qator tashkiliy-iqtisodiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Natijada sholi ekiladigan maydonlar hajmi, yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlarida muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, sohada klaster tizimining joriy etilishi, yuqori hosildor navlardan foydalanish va agrotexnologiyalarni takomillashtirish sholi ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi va yerlarning meliorativ holati kabi omillar tarmoq rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2020–2024-yillarda respublika bo'yicha sholi ekilgan maydonlar 64,2 ming gektardan 46,6 ming gektargacha qisqarib, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 72,6 foizni tashkil etgan. Bu holat asosan suv resurslarining cheklanganligi, qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini maqbullashtirish hamda yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan davlat siyosati bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda sholi hosildorligi 31,6 s/ga dan 36,5 s/ga gacha yoki 15,5 foizga oshgan. Hosildorlikning o'sishi yuqori hosildor navlarning joriy etilishi, agrotexnologik tadbirlarning takomillashtirilishi hamda ishlab chiqarish jarayonida intensiv omillar rolining ortishi bilan bog'liq. Natijada sholi yetishtirish maydonlarining sezilarli darajada qisqarishiga qaramasdan, yalpi hosil hajmi 293,5 ming tonnadan 338,6 ming tonnaga yetgan yoki 15,4 foizga ko'paygan.



Demak, respublika sholichiligida ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanishga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ya'ni sholi yetishtirish hajmini oshirish asosan ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga emas, balki har gektardan olinayotgan hosildorlikni oshirish hisobiga ta'minlanmoqda. Bunda mavjud yer va suv resurslaridan yuqori unum bilan foydalanish hamda suv mahsuldorligini oshirish intensiv rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [6]. Bu esa tarmoqda resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Sholichilikni innovatsion asosda rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi [7].

Respublika miqyosida kuzatilgan mazkur tendensiyalar alohida hududlar kesimida ham turlicha namoyon bo'lgan. Xususan, mamlakatning asosiy sholichilik hududlaridan biri hisoblangan Xorazm viloyatida sholi yetishtirish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar respublikadagi umumiy jarayonlarning hududiy xususiyatlarini baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Respublika bo'yicha sholi yetishtirish dinamikasi [8]

Yillar	Asosiy maydonga ekilgan ekinlar maydoni, ga	Asosiy maydonda ekilgan ekinlarning yig'ilgan maydoni, ga	Yig'ib olingan yalpi hosil (asosiy, takroriy, qator oralari ekinlaridan), tonna	Hosildorlik, s/ga
2020	64249	47425	293451	31,6
2021	53895	48886	334226	33,6
2022	51415	46322	359147	34,5
2023	43248	42250	355674	38,5
2024	46631	45742	338564	36,5
2024 y. 2020 y.ga nisbatan, %da	72,6	96,5	115,4	115,5

Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, 2020–2024-yillarda Xorazm viloyatida sholi yetishtirish ko'rsatkichlarida intensiv rivojlanish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, sholi ekilgan maydonlar 19,2 ming gektardan 14,6 ming gektargacha qisqarib, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 76,1 foizni tashkil etgan. Xuddi shu davrda yig'ib olingan maydon ham 17,0 ming gektardan 14,3 ming gektargacha kamayib, 84,0 foizni tashkil etgan.

Shunga qaramasdan, sholi hosildorligi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Agar 2020-yilda har gektardan o'rtacha 34,2 sentner hosil olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 43,2 sentnerga yetgan yoki 26,3 foizga oshgan. Bu esa yuqori hosildor navlardan foydalanish, agrotexnologiyalarni takomillashtirish hamda yer va suv resurslaridan samaraliroq foydalanish natijasi sifatida baholanishi mumkin. Mazkur natijalar Xorazm viloyatida sug'orish tizimlarini samarali boshqarish, sizot suvlari sathi va tuproq sho'rlanishini nazorat qilish hosildorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi [9].

Hosildorlikning o'sishi yalpi hosil hajmida ham ijobiy o'zgarishlarni ta'minlagan. Xususan, tahlil qilinayotgan davrda yalpi hosil 124,9 ming tonnadan 150,8 ming tonnagacha ko'payib, o'sish sur'ati 120,7 foizni tashkil etgan. Demak, viloyatda sholi yetishtirish hajmining ortishi asosan intensiv rivojlanish omillari hisobiga ta'minlangan bo'lib, bu sholichilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Xorazm viloyati bo'yicha sholi yetishtirish dinamikasi [8]

Yillar	Asosiy maydonga ekilgan ekinlar maydoni, ga	Asosiy maydonda ekilgan ekinlarning yig'ilgan maydoni, ga	Yig'ib olingan yalpi hosil (asosiy, takroriy, qator oralari ekinlaridan), tonna	Hosildorlik, s/ga
2020	19150	16999	124955	34,2
2021	15086	14769	139362	40,0
2022	14538	14190	142041	42,0
2023	14269	14148	145216	43,1
2024	14581	14279	150768	43,2
2024 y. 2020 y.ga nisbatan, %da	76,1	84,0	120,7	126,3



XULOSA VA TAKLIFLAR

2020–2024-yillarda respublika sholichiligida sholi ekiladigan maydonlarning qisqarishi bilan bir qatorda hosildorlikning oshishi kuzatildi. Natijada yalpi hosil hajmi barqaror saqlanib, ma’lum darajada o’sishga erishildi. Bu holat tarmoq rivojlanishida intensiv omillarning ahamiyati ortib borayotganini ko’rsatadi.

Xorazm viloyatida ham xuddi shunday tendensiya shakllangan bo’lib, sholi maydonlarining qisqarishi hosildorlikning o’sishi hisobiga qoplangan. Shu bois viloyatda yalpi hosil hajmi nafaqat saqlanib qolgan, balki o’sish dinamikasini ham namoyon etgan.

Tahlil qilingan davr mobaynida respublika bo’yicha yetishtirilgan sholining qariyb 40 foizi Xorazm viloyati hissasiga to’g’ri kelgan. Shuningdek, viloyatdagi hosildorlik ko’rsatkichlari respublika o’rtacha ko’rsatkichidan muntazam ravishda yuqori bo’lgan. Bu holat Xorazm viloyatining mamlakat sholichiligida muhim o’rin tutishini ko’rsatadi.

Sholi yetishtirish tarkibida fermer xo’jaliklari ustuvor mavqega ega bo’lib, yalpi hosilning asosiy qismi ular hissasiga to’g’ri keladi. Mazkur holat tarmoq samaradorligi ko’p jihatdan fermer xo’jaliklari faoliyati natijalari bilan bog’liq ekanligini anglatadi.

Umuman olganda, sholichilik tarmog’ining keyingi rivojlanishi hosildorlikni oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va zamonaviy agrotexnologiyalarni keng qo’llash bilan bevosita bog’liq bo’lib, ushbu yo’nalishlar tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ–290-son ***Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida***gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2024. – 16-avgust. – 07/24/290/0625-son. – Elektron manba: O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligi — PQ–290-son qaror bo’yicha rasmiy ma’lumot.
2. Obloqulov A.O. **Kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish asosida sholi yetishtirish samaradorligini oshirish**: iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 143 b.
3. Dusanova Sh.B., Xojyazova D.Sh. Xorazm viloyati tuproqlarining hozirgi ekologik holatini baholash // **Ekonomika i sotsium**. – 2024. – № 6 (121)-2. – B. 122–124. – Elektron manba: Maqolaning elektron nusxasi.
4. Motamed M.K. Role of cooperative companies in sustainable rice production and poverty alleviation in Guilan state of Iran // **African Journal of Biotechnology**. – 2010. – Vol. 9, No. 11. – P. 1592–1599. – DOI: 10.5897/AJB2010.000-3017. – Elektron manba: African Journal of Biotechnology; DOI.
5. Mariyono J. Rice production in Indonesia: policy and performance // **Asia Pacific Journal of Public Administration**. – 2014. – Vol. 36, No. 2. – P. 123–134. – DOI: 10.1080/23276665.2014.911489. – Elektron manba: Taylor & Francis; DOI.
6. Zwart S.J., Bastiaanssen W.G.M. Review of measured crop water productivity values for irrigated wheat, rice, cotton and maize // **Agricultural Water Management**. – 2004. – Vol. 69, No. 2. – P. 115–133. – DOI: 10.1016/j.agwat.2004.04.007. – Elektron manba: ScienceDirect; DOI.
7. Chariyev Q.A., Obloqulov O.A. **Kooperatsiya asosida sholichilik tarmog’ini innovatsion rivojlantirish**: monografiya. – Toshkent: “Oltin Qalam nashriyoti” MChJ, 2024. – 166 b.
8. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. **Qishloq xo’jaligi bo’yicha rasmiy statistika ma’lumotlari**. – Elektron resurs. – Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi. – Elektron manba: Milliy statistika qo’mitasi — Qishloq xo’jaligi statistikasi.
9. Ibrakhimov M., Khamzina A., Forkutsa I., Paluasheva G., Lamers J.P.A., Tischbein B., Vlek P.L.G., Martius C. Groundwater table and salinity: Spatial and temporal distribution and influence on soil salinization in Khorezm region (Uzbekistan, Aral Sea Basin) // **Irrigation and Drainage Systems**. – 2007. – Vol. 21, No. 3–4. – P. 219–236. – DOI: 10.1007/s10795-007-9033-3. – Elektron manba: DOI.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>